**O‘ZBEKISTON RESPUBLKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**
**KIMYO KAFEDRASI**

**“TASDIQLAYMAN”**
**Qo‘qon davlat universiteti**
**rektori D.Sh.Xodjayeva**
**“____” ___________ 2025 yil**

# 02.00.09-“TOVALAR KIMYOSI” IXTISOSLIGI BO‘YICHA MUTAXASISLIK FANLARIDAN DOKTORANTURAGA KIRISH IMTIHONI DASTURI.

**Qo ‘qon—2025**

Mazkur dastur 02.00.09 –Tovarlar kimyosi ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtihon qabul imtihoni o‘tkazish uchun tavsiya etiladigan savollar, ularga javob tayyorlashda etiborga olish maqsadga muvofiq bo‘lgan masalalar yuzasidan umumiy yo‘nalish bayonini o‘z ichiga oladi.

Qoqon DU kimyo kafedrasining 2025-yil “ ___” ______dagi ____ - sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va tavsiya etilgan.

02.00.09 – Tovarlar kimyosi ixtisosligi bo‘yicha dasturi Qoqon DU Kengashining 2025-yil “ ___” ______dagi ____ - sonli bayoni bilan maqullangan.

**Tuzuvchilar:** Kimyo kafedrasi dotsenti, kimyo fanlari nomzodi, M.Yu, Isaqov.

Kimyo kafedrasi professor, kimyo fanlari nomzodi, G.M. Ochilov

**Taqrizchi:** Kimyo kafedrasi dotsenti, kimyo fanlari bo’yicha falsafa doktori(PhD) D.B.Karimova

## Kirish

02.00.09 - Tovarlar kimyosi ixtisosligi tayanch doktoranturaga kirish uchun o‘zlashtirilishi talab qilinadigan nazariy-metodologik kurs tovarlarning sifat ko‘rsatkichlari va istemol xossalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomrklaturasi bo‘yicha sinflash va sertifikatlash asosida kimyoviy tarkibi, strukturasi, tayyorlash texnologiyasi, kelib chiqishi va boshqalardan kelib chaqqan holda keyinchalik kimyoviy tarkibi asosida tovar kodlari berish bilan tabiiy materiallardan qimmatli materiallar ajratib olish va yangi kimyoviy birikmalar sintez qilish metodlarini egallashlariga erishishdan iborat. Bunda ixtisoslik tarkibidagi har bir fan sohasi bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlarda tayanch doktorant izlanuvchi mustaqil ravishda o‘z bilimini chuqurlashtirishi ko‘zda tutiladi.

**1-Modul.** Tovarlarni **kimyoviy tarkib asosida sinflash. Tovarlarni kimyoviytarkibi asosida sinflash va sertifikatlash ixtisosligi.** Ihtisoslik formulasi va tadqiqot yunalishlari.Fanning predmeti, mazmuni va mohiyati. Tovarlar **nomenklaturasning** asosiy tasniflash tizimlari. Uyg’unlashgan tizimning yaratilishi. Uyg’unlashgan tizimning tuzilishi, unda tovarlarning joylashish strukturasi. Tovarlarni tayyorlash uchun ishlatiladigan mahsulotlar , materiallar, manbalar; ishlatiladigan soha va vazifaga qarab xamda kimyoviy tarkibiga ko’ra tasniflash. O’zbekistonda Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasining yuritilishi. TIF TN bo’yicha tovarlarni talqin etishning asosiy qoidalari. Tovarlarning TIF TN kod raqamlarini aniqlash usullari.

**2-Modul. Tovarlar ekspertizasi.** Tovar ekspertizasi turlari. Tovarshunoslik ekspertizasi. Tovarshunoslik ekspertizasini tashkil etuvchilar. Mıьdor va sifat ekspertizasi. Kontrafakt tovarlarni aniqlashda ekspertizaning o’rni.

**3-Modul. Oziq-ovqat mahsulotlarini kimyoviy tarkib asosida tasniflash.** Don va un mahsulotlarini tIF TN asosida tasniflash. Don va uning turlari. Non va non mahsulotlari, ularni saqlash va markirovkalash. Go’sht va go’sht mahsulotlarining tasniflanishi.Baliq va qayta ishlangan baliq mahsulotlari; sut va sut mahsulotlarini TIF TN da sinflanishi. Qalbakilashtirilgan sut mahsulotlarini aniqlash. Alkagolь, tamaki mahsulotlari va ularni sinflash. Lazzatlm mahsulotlar. O’simlik, xayvon yog’lari, qandolat mahsulotlari, ularining TIF TNda tasniflanishi.

**4-Modul. Nooziq-ovqat mahsulotlarining tasnifi.** Maishiy kimyo tovarlari, keramika, shisha, plastmassa, metallar va ulardan ishlab chiqarilgan tovarlar,

poyabzal, mebelь,to'qimachilik va trikotaj mahsulolari, ularning TIF TNda tasniflanishi. Parfyumeriya-kosmetika tovarlari, teri, mo'yna, qurilish mahsulotlari, ularni TIF TN da tasniflashning xususiyatlari.

**5-Modul. Standartlashtirish va sertifikatlash asoslari. Mohiyati.** Standartlashtirish asoslari. Tovarlarni xalqaro sertifikatlashning mohiyati, asoslari. O'zbekiston Respublikasida tovarlarni sertifikatlash. Xorijiy mamlakatlarda tovarlarni sertifikatlash. Sertifikat turlari va sertifikat beruvchi tashkilotlar.

"Tovarlar kimyosi" **fanidan dastur savollari.**

**1.** Tovarlar kimyosi ixtisosligi: ixtisoslik formulasi va tadqiqot yo'nalishlari.
**2.** O'zbekiston Respublikasida Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasining yuritilishi.
**3.** Standartlashtirish asoslari va mohiyati (maqsadi, vazifalari, asosiy tushuncha va atamalari).
**4.** Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfszligini taminlashda standartlashtirishning o'rni.
**5.** Tovarlar ekspertizasining moxiyati. Kontrafakt tovarlarni aniqlashda ekspertizaning ahamiyati.
**6.** Tovarlarni sinflarning tarkibiy elementlari (kelib chiqishi, kimyoviy tarkibi, qayta ishlanganlik darajasi, ishlatilishi
**7.** Ekspertiza jarayonlarida qo'llaniladigan fizik-kimyoviy usullar: Fur'e infraqizil spektrometri.
**8.** Namuna va probalarni bojxona laboratoriyalarida saqlash va yo'q qilish.
**9.** Alkagolli va alkagolsiz ichimliklarning bojxona ekspertizasi.
**10.**200 l li shisha idishlarga qadoqlangan suyuqlik sirka kislota nomi bilan Respublikaga olib kirilyapti. Uning haqiqatdan ham sirka kislota ekanligini qanday aniqlaysiz ?
**11.**Tovarlarni kimyoviy tarkibiga ko'ra sinflash va sertifikatsiyalash orasidagi bog'liqlik.
**12.**Xalqaro savdoda uyg'unlashgan tizimni shakllanishining asosiy qonuniyatlari.
**13.**Tovarlarni kodlash va tasniflash uyg'unlashgan tizimning tuzilishi.
**14.**Tovarlarni sinflashga ta'sir etuvchi asosiy parametrlarni aniqlash.
**15.**Xom-ashyolar va tayyor mahsulotlarning qiyosiy tahlili. Ularni tashqi iqtisodiy tovar nomenklaturasi talablariga ko'ra sinflash printsiplari.
**16.**O'zbekiston Respublikasi TIFTN ga ko'ra tovarning 10 raqamli kodini aniqlashda kimyoviy tarkibning o'rni.
**17.**Tovarlarni qayta ishlanganlik darajasiga ko'ra sinflash tizimi va metodlari.
**18.**Oziq-ovqat mahsulotlarini identifikatsiyalashda va qalbakilash-tirilganligini aniqlashda qo'llaniladigan metodlar.
**19.**Ekologik xavfli mahsulotlarni tashqi iqtisodiy faoliyatda O'zbekistonga olib kirishni boshqarish, asosiy sinflash ko'rsatkichlarini aniqlash.
**20.**Tovarlar ekspertizasi tushunchasi, huquqiy asoslari va uning vazifalari.
**21.** Ekspertiza tayinlanish asoslariga ko'ra turlari. Ekspertizaning kasb soha turlari haqida ma'lumotlar.
**22.**O'zbekistonda bojxona ekspertizasini tashkil etilish tarixi va ekspertizani tashkil etish uchun tarixiy zaruriyat.
**23.**Bojxona laboratoriya bo'limlarini tashkil etish va takomillashtirish bosqichlari.
**24.**Ekspertiza tadqiqotlarining maqsadi, obekti va subekti (bojxona ekspertizasi misolida).
**25.**Ekspertiza jarayonlarida qo'llaniladigan fizik-kimyoviy usullar: Mass spektrometriya.
**26.**Ekspertiza jarayonlarida qo'llaniladigan fizik-kimyoviy usullar: YaMR spektrometriya.
**27.**Ekspertiza jarayonlarida qo'llaniladigan fizik-kimyoviy usullar: induktiv tarzda biriktirilgan plazmali va emissiyali Mass-spektrometriya.
**28.**Ekspertiza jarayonlarida qo'llaniladigan fizik-kimyoviy usullar: xromato Mass-spektrometriya.
**29.**Ekspertiza jarayonlarida qo'llaniladigan fizik-kimyoviy usullar: optik spektroskopiya asoslari.
**30.**Namuna va proba tushunchasi. Namuna va proba olishning huquqiy asoslari. (bojxona ishi misolida).
**31.**Namuna va probalarni bojxona laboratoriyalarida saqlash va yo'q qilish.
**32.**Dori-darmonlarni davlat tilida markirovka qilish. Iste'mol tovarlarini markalashga qo'yildigan umumiy talablar.
**33.**Tovarlarni maxsus identifikatsiyasi belgilar bilan markalshning xususiy asoslari.
**34.**Tovarlarni maxsus identifikatsion belgilar bilan markalash jarayoni texnologik sxemasi.
**35.**Kotrafakt tovarlar, kontrafaktsiya tushunchasi, mamlakat iqtisodiyotiga zarari.
**36.**Giyohvandlik-umumiy tushunchalar. Tabiiy va sintetik giyohvandlik vositalari.
**37.**Giyohvandlik vositalari, psixatrop moddalar va perekursorlarning noqonuniy aylanishiga qarshi xalqaro kurashish.

**38.**Laboratoriyada giyohvand vositalari, psixatrop moddalar va perekursorlarni aniqlash usullari.

**39.**Ozon qatlamini yemiruvchi moddalar va ularni ekspertizadan o'tkazish usullari. Vena Konvensiyasi. Monreal protokoli.

**40.**Karantin laboratoriya ekspertizasi. O'simliklar karantinida qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot usullari.

**41.**Oziq-ovqat mahsulotlarining kimyoviy tarkibi. Ularning ekspertizasini o'tkazish.

**42.**Go'sht va sut, yog'-moy sanoati mahsulotlarining bojxona ekspertizasi.

**43.**Alkagolli va alkagolsiz ichimliklarning bojxona ekspertizasi.

**44.**To'qimachilik mahsulotlarining bojxona ekspertizasini o'tkazish tartibi.

**45.**Qimmatbaho va noqimmatbaho metallarning bojxona ekspertizasi.

**46.**Uyg'unlashgan tizimining yaratilsh tarixi. Tovarlarni tasniflashning uyg'unlashgan tizimi va kodlashtirish haqidagi xalqaro konventsiya.

**47.**Butun jahon bojxona tashkilotining uyg'unlashgan tizim qo'mitasi bilan hamkorligi.

**48.**Tovarlarni tasniflash va kodlash bo'yicha uyg'unlashgan tizimning tuzilishi.

**49.**TIFTN ni talqin etishning asosiy qoidalari. Tovarlarning TIFTN kod raqamlarini aniqlash. (1,2,3-qoidalar).

**50.**TIFTN ni talqin etishning asosiy qoidalari. Tovarlarning TIFTN kod raqamlarini aniqlash. (4,5,6-qoidalar).

**51.**Sertifikatlash tizimi. Sertifikatlar turi va sertifikat beruvchi organlar.

**52.**Sertifikatlashtirish obektlari va subektlari. Muvofiqlik sertifikati.

**53.**O'simliklar, urug'lar va o'simlik mahsulotlarini sertifikatlash. (Fitosanitariya sertifikati).

**54.**Veterenariya sertifikatini berishdan ko'zda tutilgan maqsad va vazifalar. Vakolatli organlar.

**55.**Tarkibida 35% mis, 5% qalay va 53% temir bo'lgan qotishmani TIFTN ga ko'ra sinflang.

**56.**Tilla suvi bilan bezatilgan billur idishdagi atirni TIFTN da sinflash tartibini tushuntiring.

**57.**85% tabiiy va 15% sun'iy tolalar qo'shilmasidan to'qilgan matoning ekspertizasini o'tkazish tartibini tushuntiring.

**58.**Tovuq, o'rdak va g'oz oyoqlari bir qutida qadoqlangan. Ularni TIFTN bo'yicha sinflang.

**59.**200 $sm^3$ hajmli idishlarga sulьfat, nitrat, fosfat, xlorid kislotalar solinib, yog'och konteynerga joylangan. Ularni TIFTN da sinflash tartibini tushuntiring.

**60.**Qoramolning son go'shti (suyaksiz) qaysi guruh va tovar o'rni muvofiq keladi.

**61.**10 turdagi aminokislotalar to'plam holida qadoqlanib, savdoga chiqarildi. Ularga TIFTN da muvofiq keluvchi kod raqamini aniqlang.

**62.**Tovarlarni sinflashning asosiy qoidasining 3(b) bandidan qachon foydalaniladi ?

**63.**CHolg'u asbobi qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan g'ilofda eksport qilinmoqda. Unga TIFTN bo'yicha qaysi kod raqamini tavsiya qilgan bo'lar edingiz ?

**64.**Konteynerlarga tabiiy quritilgan va kimyoviy ishlov berish orqali quritilgan o'rik mevalari joylangan. Ular uchun TIFTN kod raqamini aniqlang.

**65.**O'simliklardan olingan alkaloidlar dori vositasi sifatida chakana savdo uchun qadoqlangan. Bu dori uchun TIFNT bo'yicha qaysi kod raqamini tavsiya etgan bo'lardingiz.

**66.**200 l li shisha idishlarga qadoqlangan suyuqlik sirka kislota nomi bilan Respublikaga olib kirilyapti. Uning haqiqatdan ham sirka kislota ekanligini qanday aniqlaysiz ?

**67.**Tovar tushunchasiga kimyoviy nuqtayi nazarga ko'ra ta'rif bering.

**68.**Havo, ko'l va daryolar suvlariga Tovar atamasini ishlatish mumkinmi ? Fikringizni izohlang.

**69.**O'rik yog'ochi 0,25 $sm^3$ o'lchamga keltirilib, 700°C haroratda 3 soat davomida qizdirildi. Dastlabki va oxirgi holatlar bo'yicha ularni TIFNT ko'ra sinflang.

**02.00.09-Tovarlar kimyosi ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga nomzodlarni qabul qilish og'zaki suhbat imtixonlari asosida o'tkaziladi.**

## BAHOLASH MEZONI

02.00.09-Tovarlar kimyosi bo'yicha tayanch doktoranturaga nomzodlarni kirish sinovi mavjud o'quv dasturi asosida tuzilgan variantlar savollariga javob qaytarish tarzida amalga oshiriladi.

Har bir variantda 4 tadan savol bo'ladi. Talabgorning javoblari "0" balldan "100" ballgacha baholanadi.

Har bir variantda 4 ta savol mavjud bo'lib, har bir savol uchun maksimal **25 ball**dan belgilangan.

Variantdagi **savollar**ga berilgan javoblarning mazmuniga qarab, ularga quyidagicha miqdorda ballar belgilanadi:

1. Mazkur savolning mazmuni aniq, to'liq va mantiqan to'g'ri yoritib berilsa. Bundan tashqari, javob hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq xolda, yoritilsa, 20 – 25 balgacha qo'yiladi.

2. Mazkur savolning mazmuni to‘liq, yaxshi yoritilsa va hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalangan, mavzular asoslangan, ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo‘l qo‘yilsa, 14 – 19 balgacha qo‘yiladi.

3. Mazkur savolning mazmuni o‘rtacha yoritilsa, javob to‘g‘ri berilsa, mavzular asoslansa, ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo‘l qo‘yilsa, 10-14 balgacha qo‘yiladi.

4. Mazkur savolning mazmuni talab darajasida yoritilmasa va hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanilmasa, savol bo‘yicha aniq tasavvurga ega bo‘lmasa, umuman javob berilmasa yoki noto‘g‘ri javob va ma’lumot berilsa, 0-10 balgacha qo‘yiladi.

| № | Umumiy ball | Baho | Tayanch doktaranturaga kiruvchining bilim darajasi | Xususiy ball |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 20-25 | A’lo | Berilgan savollar mazmuni aniq yoritilib mazmun-mohiyatini to‘liq ochib berilishiga; | 24-25 |
| | | | Javoblar mantiqan yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega; | 22-23 |
| | | | Imlo va stilistik xatolarga yo‘l qo‘yilmagan. | 20-21 |
| 2 | 14-19 | Yaxshi | Javoblar to‘g‘ri yozilgan va mavzular asoslangan, ammo ayrim noaniqliklar, chalkashliklarga yo‘l qo‘yilgan; | 18-19 |
| | | | Javoblarda tayanch doktaranturaga kiruvchining mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi; | 16-17 |
| | | | Muammoni tahlil qilish qobiliyatiga ega. | 14-15 |
| 3 | 8-13 | Qoniqarli | Savollarda javobda masalaning mohiyatiga tushunilgan, ammo mazmun natijalar yuzaki yoritilgan; | 12-13 |
| | | | Mushohada bayonida fikr tarqoqligi kuzatilgan; | 10-11 |
| | | | Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan tasavvurga ega, biroq tahlil yetarli emas. | 8-9 |
| 4 | 0-7 | Qoniqarsiz | Savol bo‘yicha aniq tasavvurga ega emas, adabiyotdan aynan so‘zma-so‘z ko‘chirilgan; | 4-7 |
| | | | Noto‘g‘ri javob va ma’lumot berilgan; Umuman javob yozilmagan. | 0-3 |

## Asosiy va qo’shimcha o’quv adabiyotlar hamda axborot manbalari.

### Asosiy adabiyotlar.


1. Товарная номенклатура внешнеэкономической деятельности Республики Узбекистан.—Т.: изд. “Мир экономики и права” 2012
2. И.Р. Аскаров. Ш.М. Киргизов ва б.Товарлар кимёси. “Янги аср авдоди” Т.: 2019
3. Қ.М. Каримқулов.О.А.Ҳасанов.Б.Ё.Абдуганиев. И.Р.Аскаров. Божхона экспертизаси. Товарларни халкаро сертификатлаш Т.;ОҲБИ. 2013.
4. К.Каримкулов.Б.Абдуганиев. Ғ.Ҳамрақулов. Ташки иқтисодий фаолиятдаги товарлар номеклатураси//--Т.:”Фан ва технологиялар” маркази. 2008.


### Qo’shimcha adabiyotlar


1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat`iytartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak.
2. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag`ishlangan majlisidagi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi.// Xalqso`zigazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11
3. Mirziyoyev Sh.M.Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga qiramiz.”O`zbekiston”, 2017.
4. Пояснение к Товарной номенклатуре внешнеэкономической деятельности Первое издание т 2 раздел 6—М : Изд «МАКЕТ» 1993

7. Ш. Шорахмедов. Қ. Каримкулов. “Товарларни таснифлаш”— Тошкент.: 2005

8. *Р.Нормахматов. Озик-овқат махсулотлари товаршунослиги.”ШАРҚ”. Тошкент.:2002*

9. *В.В.Шевченко. Товароведение и экспертиза потребительских товаров.Учебник—М.: ИНФРА-М.2001*

10. Товароведение непродовольственных товаров./Под. Ред.Л.И. Бойдаковой.- К.: Высшая Школа. 1997